

IJTIMOIIY ROLLAR VA QADRIYATLARNING AYOLLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIKNI SHAKLLANISHIGA TA’SIRI.

Abdullayeva Nilufarxon Shukurjon qizi.
Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotasiya: Mazkur maqolada zo‘ravonlikka uchragan ayollarning oilaviy rollari va qadriyatlar tizimini empirik o‘rganishga alohida e‘tibor qaratamiz. Shu sababli muammoning o‘ziga xosligini yoritishda zo‘ravonlikka uchragan ayollarning oilaviy rollari va qadriyatlari hamda ularning xulq-atvor xususiyatlarini ham o‘rganishga e‘tibor qaratildi.

Tayanch so‘z va tushunchalar: zo‘ravonlik, oilaviy zo‘ravonlik, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik, qadriyat va rollar, er-xotinlarning shaxs sifatida muvofiqligi, maishiy-xo‘jalik yuritish, ota-ona tarbiyachilik funksiyasi, Ijtimoiy faollik rollari, tashqi jozibadorlik, emotsional-psixoterapevtik.

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ РОЛЕЙ И ЦЕННОСТЕЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН

Абдуллаева Нилуфархон Шукурджон кызы.

Преподаватель кафедры психологии

Аннотация. В данной статье мы уделяем особое внимание эмпирическому изучению семейных ролей и систем ценностей женщин, подвергшихся насилию. По этой причине, подчеркивая уникальность проблемы, было уделено внимание изучению семейных ролей и ценностей подвергшихся насилию женщин, а также их поведенческих особенностей.

Ключевые слова и понятия: насилие, насилие в семье, насилие в отношении женщин, ценности и роли, совместимость пар как личности, ведение домашнего хозяйства, родительская функция, социальный активизм, роли, внешняя привлекательность, эмоционально-психотерапевтические.

THE INFLUENCE OF SOCIAL ROLES AND VALUES ON THE FORMATION OF VIOLENCE AGAINST WOMEN

Abdullaeva Nilufarkhon Shukurjon kzy
Lecturer, Department of Psychology

Abstract. In this article, we focus on empirically examining the family roles and value systems of abused women. For this reason, emphasizing the uniqueness of the problem, attention was paid to studying the family roles and values of abused women, as well as their behavioral characteristics.

Key words and concepts: violence, domestic violence, violence against women, values and roles, compatibility of couples as individuals, housework, parental functions, social activity, roles, external attractiveness, emotional and psychotherapeutic.

Kirish.

Jahonda oilalardagi zo'ravonlikning oldini olish usullarini o'rganishning dolzarbligi, bu hodisa odamlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotiga ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq bo'lib, tenglik, ijtimoiy rivojlanish va demokratik jamiyatni qurishda haqiqiy to'siqdir. Hozirgi vaqtda gender tengligi tinchlik va bag'rikenglik qadriyatlarini tarqatish, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, zo'ravonlikdan voz kechish tamoyillari sifatida zamonaviy jahon taraqqiyotining yagona qiymat birligi sifatida rasman tan olinmoqda. Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot markazlarida zo'ravonlikni, xususan oilaviy zo'ravonlikni ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganish, diagnostik tadqiq qilish orqali zo'ravonlikni oldini olishga qaratilgan zarur taklif va tavsiyalarni berish bilan bog'liq muammolar ilmiy tadqiq etib borilmoqda. Ijtimoiy rivojlanish masalalari doirasida inson huquqlarini himoya qilish, ayollarning zo'ravonlikdan ozod bo'lish huquqlarini amalga oshirish, ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlashtirishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy asoslar yaratilmoqda. oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarning oilaviy rollari, oila barqarorligi, shaxslararo munosabati, er bilan xotinning oilaviy qadriyatlari zo'ravonlikni keltirib chiqaruvchi eng muhim omil ekanligiga e'tibor qaratildi. Zo'ravonlikka uchragan ayollar oilaviy qadriyatlari tahliliga ko'ra quyidagi munosabatlar aniqland. Jinsiy munosabatlar. Zo'ravonlikka uchragan ayollarning metodika bo'yicha qadriyatlar va ijtimoiy rollarni mosligini bo'yicha ko'rsatkichlari metodikaning birinchi shkalasi jinsiy munosabatlarni aniqlashga yo'naltirilgan bo'lib, er-xotinlarning jinsiy munosabatlardagi muvofiqligini, oilaning tinch-totuvligi uchun ahamiyatlidir. Er-xotin o'rtasidagi jinsiy munosabatlar oilaning nozik jihatlari va hamjihatlikni ta'minlashning muhim tomonidir. Oilalardagi notinchlikning bir jihati, er yoki xotinning xiyonati masalasi ham aynan jinsiy nomutanosiblik oqibati hisoblanadi. Er tomonidan ayolning o'ziga jinsiy sherik sifatida yetarlicha baholanmasligi psixologik va ijtimoiy-psixologik omillarning ham yetishmasligiga turtki beradi. Ruhiy keskinlik er-xotinning jinsiy nomutanosiblik, ko'nglini topa olmaslik, emotsional qo'zg'alishning hosil bo'lmasligi, oilaviy shartsharoitlarning yetishmasligi va o'z navbatida jinsiy nomutanosiblik sabab ayolning tahqirlanishi uning qo'shni ayollar orasidagi ijtimoiy mavqeini pasayishiga va o'zini psixik zo'riqlashlar ostida his qilishiga sabab bo'ladi.. O'zbek etnosida xotin doimo erni tushunishi, uning fikrlariga qarshilik bildirmasligi, norozilik qilmasligi va so'zsiz bo'ysunishi lozim degan pozitsiya mavjud. Diniy-falsafiy munosabatlarga ko'ra ham erxotinga nisbatan bir pog'ona yuqori bo'lishi lozim deyilsa-da, ammo bu talqin erkakning tabiiy imkoniyati oilaning tayanchi deb baholangandagina asoslidir. Shuning uchun er bilan xotinning shaxs sifatida nomutanosibligini ham zo'ravonlik uchun asos bo'lishi tabiiydir. Zo'ravonlikka uchragan ayollar nazdida erlarida oilaning maishiy-xo'jalik faoliyatini ko'ngildagidek emasligi sababli ham ular urning zo'ravonligini tatishiga sabab bo'layotgan ekan, degan xulosani bermoqda. Erkaklar, xo'jalik jihozlarini duradgorlik, elektr jihozlarini ta'mirlashlari, o'zni

kelganda pazandalikni uddalashlari, chorvachilik va qishloq xo'jalik yumushlarini ham maqsadli bajarishlari lozim. Ayollar esa uyni saranjom tutishlari, shirin va xilma xil taomlar tayyorlay olishlari, oshxona idishlarini toza-ozoda saqlash, mehmon kutishni va shu kabi uy bekasi uchun zarur talablarni bajara olishlari bilan bog'liqdir. O'z navbatida ayollarda ham ushbu talablarga javob bermaslik oqibatida ham er tomonidan keskinlashgan munosabatlar kuzatishi tabiiydir. Ushbu rol asosida ham er tomonidan ayolga nisbatan zo'ravonlik oilaning maishiy-xo'jalik bo'yicha vazifalarni bajarmaslik oqibatida ham kuzatiladi deya olamiz. Er bilan xotinlarning ota-onalik majburiyatlariga munosabati, farzandlar shakllanishdagi shaxsiy pozitsiyalari, ota-onalik funksiyalari mazkur shkalaning mohiyatini ifodalaydi. Bu borada zo'ravonlikka uchragan ayollar turmush o'rtoqlarini keskin baholamaganlar Er-xotinlarning ota-onalik hamda tarbiyachilik funksiyalari to'g'risidagi tasavvurlari, ularning shaxslilik pozitsiyalari, ijtimoiy talablarga mas'uliyat, jamiyat va oila munosabatlaridagi o'rinlarini belgilaydi Ijtimoiy faollik rollari. Ushbu rol er-xotinlarning tashqi ijtimoiy faolligini, kasbiy va jamiyat hayotidagi oilaviy munosabatlar barqarorligini belgilovchi ustanovkalaridir. Ijtimoiy faollik rolining bir jihatida er-xotinlarning maishiy-xo'jalik va tarbiyachilik funksiyalari bilan bog'liqdir¹. Shu bois, oilaviy zo'ravonlik uchun emas, balki oilaviy munosabatlar barqarorligida ushbu rolni o'rini yuqoriligini ta'kidlaymiz. Umumiy mohiyati esa er bilan xotinlarning o'zaro axloqiy va hissiy jihatdan oila a'zolarini qo'llab-quvvatlashi, uni ardoqlashi, undagi psixologik hamkorlik va totuvlikni belgilaydi.

Hulosa.

Oilada ayollarga nisbatan zo'ravonlikni ijtimoiy-psixologik jihatlarini tahlil qilish asosida oilaviy qadriyatlari va rollar ko'rsatkichlari bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi dalillangan. Oiladagi nosog'lom psixologik muhit oilaviy zo'ravonlikning yuzaga keltiruvchi omil bo'lib ta'sir qilishi xususan, zo'ravonlikning eng faol agressiyali xulq-atvor shakli sifatida namoyon bo'lishi dalillangan. Tadqiqot natijalari asosida zo'ravonlikka uchragan ayollarning oilaviy qadriyatlari va rollari ko'rsatkichlari er-xotinlarning ma'lumotlilik darajasiga ko'ra tafovutli mazmun kasb etishi dalillandi. Oilaviy zo'ravonlikni yuzaga kelishida ayollarning barcha yosh bosqichlariga ko'ra asosiy sabab er-xotin rollaridagi shaxs sifatidagi nomutanosibliklar ekani ma'lum bo'ldi. Bunda zo'ravonlikka uchragan barcha ayollar o'zlarining turmush o'rtoqlarini shaxs sifatida nomutanosib deb baholashlari sabab ekanligi dalillangan.

Foydalanilgan adabiyotlar po'yxati:

1. Беркович Л. Агрессия: причины, последствия и контроль. - СПб, 2001. - С.232.
2. Karimova V.M. Ayollar salomatligi va gender masalalari // Sog'lom avlod uchun, 2006, №5.- 12-15 b.
3. Оксфордская иллюстрированная энциклопедия. Том 7. – М.: «Академия», 2002.167с
4. Волкова А.Н. Опыт исследования супружеской неверности // Вопросы психологии. - М., 1989. - № 2. - С. 98-102.
5. Забелина Т.А. Женщина и насилие. - М.: ЭКСМО-Пресс, 1995. – 105 с.
6. Зиявутдинова Х.Ш. Социально-психологические особенности насилия между супругами в узбекских семьях. // Вестник интегративной

психологии. Журнал для психологов. №-23. Бухара -Ярославль: МАПН, 2022. 130 с.

7. Muminov A. "Leading tendencies in the development of cultural and spiritual identity of the peoples of Uzbekistan" Журнал: Scienceweb academic papers collection, 2020, №1, P. 5525 -5538